

KITOB YOXUD KITOBXONLIK: BIR-BIRINI NECHOG`LI TO`LDIRADI!?

*Jizzax viloyati Do`stlik tumani 13-umumiy o`rta ta`lim maktabi Ijodiy madaniy
masalalar bo`yicha targ`ibotchisi
Rustamova O`g`iloy Shodiyevna*

Annotatsiya: Kitob o`qish jarayonida kitobxon qahramonlar bilan birga bo`ladi. Ularning quvonch va tashvishlariga sherik bo`ladi. Kitob satrlari boyligi va ritmi inson ruhiyatini tinchlantiruvchi va stresslarni bartaraf etuvchi, chalg`ituvchi xususiyatga ega. Men ham kitobxonlikni rivojlantirishga o`z hissamni qo`shishga qaror qildim.

Kalit so`zi: Kitob, ma`naviyat, mutolaa

Hozirgi davrga kelib farzandlarimizning kitob o`qishga bo`lgan qiziqishlari tubdan susayib bormoqda. Buning uchun esa avvalo ota onalar o`zimiz ko`proq kitob o`qishimiz, farzandlarimizga turli badiiy adabiyotlar sovg`a qilishimiz, o`zimiz o`rnak bo`lishimiz kerak. Birgalikda kitob o`qish ota-onalar va bolalarning o`zaro munosabatlarini yaxshilaydi, o`rtalarida o`ziga xos munosabat o`rnatiladi. Bunday munosabat birgalikda televizor ko`rganda aslo paydo bo`lmaydi. Inson kitobni qancha ko`p o`qisa, hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi. Keraksiz gaplarni kamroq gapirib, keraklilarini yaxshiroq yetkazadigan bo`ladi. Demak kitob o`qish hayotimizda o`rinli va ahamiyatga ega. Odamlar kitobga o`xshaydilar, harflar o`sha - o`sha yig`indisi har xil. Fan va texnika shiddat bilan rivojlangan hozirgi davrda insoniyat, ma`naviyati juda qashshoqlashib bormoqda. Darhaqiqat kompyuterlarda, smartfonlarda, internetda hatto televizor ko`rsatuvlarida ham keng o`rin olib borayotgan reklamali va boshqa turli tasviriy lavhalar, ayniqsa jangovor o`yinlar, insonlarning fikrlash qobiliyatini, mantiqiy tafakkurini susaytirib borayotgani sir emas. Hozirgi kunga kelib farzandlarimizning fikrlash qobiliyati susayib bormoqda, bu esa bolaning mustaqil, ijodiy rivojiga yo`l bermaydi.

Mutolaa – bu muloqat, barcha kitoblar siz bilan gaplasha oladi. Kitoblar qarshisida jamiki narsalar nursiz bo`lib qoladi. Kitob o`qigan insonning miyasi faol tarzda ishlashni boshlaydi, dunyoqarashi kengayadi, lug`at boyligi va savodxonlik darajasi oshadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o`z nutqlarida “Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma`naviyatga erishib bo`lmaydi. Kitob o`qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo`q” deb takidlab o`tgan edilar. Bir soatgina ilm o`rganish bir kechalik ibodatdan yaxshidir. Birgalikda kitob o`qish ota-onalar va bolalarning o`zaro munosabatlarini yaxshilaydi. Inson o`z farzandini kitob mutolaasiga o`rgatar ekan, avvalo o`zi ham bu ishda o`rnak bo`lishi kerak. Kitoblar manbalar va yangi bilimlarning haqiqiy hazinasidir. Shu bilan birga, inson turli mavzularda qanchalik ko`p kitob o`qisa, o`z bilimini oshirishi bilan bir qatorda, o`zaro muloqat qilish san`atini ham yaxshi egallaydi. Bundan tashqari kitob o`qish uyqusizlikdan qutilishga yordam beradi. Xotirjam bo`lish va uxlashga yordam beradigan eng yaxshi usul kitob o`qishdir. Televizor yoki telefondan tarqalayotgan yorqin nur miyaga uyg`onish kerakligi haqida signal yuboradi. Kitob o`qish esa aksincha ta`sir ko`rsatadi – miya uxlash vaqti bo`lganligini tushunadi.

Xulosa: Yuqori darajadagi aqliy salohiyat insonning tashqi ko`rinishini ham go`zallashtiradi. Har qanday mavzuda qiziqarli suhbat qura olish va o`z bilimini namoyish etish suhbatdoshining mehrini qozonishga yordam beradi. Yana bir xususiyatlaridan biri kitob o`qish tinglash qobiliyatini oshiradi, boshqalarni oson tushunishga yordam beradi. Bu ayniqsa, kitobni ovoz chiqarib o`qiganda yanada samarali bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar”. [1]**
- 2.Abdulla Qahhor “Adabiyot muallimi” to`plami. [2]**
- 3.Davron.uz sayti. [3]**